



O'QUVCHILARDA YOZMA SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVI

Rustamova Shohsanam

1-son kasb-hunar maktabi


ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7655459>

Annotatsiya: Maqolada ona tili fanining o'qitilishi, o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish muammolari, o'quvchilarni darsga qiziqtirish talablari va yangi interfaol usul sifatida "Grammatik kim oshdi savdosi" metodi tavsiya etiladi, metodning tarbiyaviy, psixologik va rivojlantiruvchi ahamiyatlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: yozma savodxonlik, imloviy xatolar, ishoraviy xatolar, uslubiy xatolar, interfaol metod, ballik sistema, guruhlararo musobaqa, narx tanlash.

"Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da yangi metodlar, usullarni qo'llash, dars o'tishning turli shakl va vositalaridan foydalanish, yangi pedagogik texnologiyalarini joriy etish har bir o'qituvchi uchun dasturulamal bo'lishi kerakligi alohida ta'kidlangan. Shunday ekan, hozirgi kun umumta'lim maktab va maktab-internatlarida qanday saviyada dars tashkil etilayotgani muhimdir. Quyida biz tavsiya etayotgan "Grammatik kim oshdi savdosi" metodidan ona tili darslarida o'rinli foydalanish maqsadga muvofiq. Agar "Diktant tahlili" mavzusida ushbu usul yordamida mustahkamlansa, xatolarni o'quvchi xotirasida uzoq saqlab qoladi. Nazorat ishida aniqlangan bo'shliqlar ustida ishlash uchun o'qituvchiga foydalanishga tavsiya etiladi. Sinf doskasiga yoki slaydga o'tilgan mavzularga doir 5-6 ta gap yoziladi. Bu gaplardan ayrimlarida imloviy, ishoraviy yoki uslubiy xatolar qo'llanadi. Har bir gapga turli ballar belgilanadi(yoki yozib qo'yiladi). 2-3ta guruhga ajratilgan o'quvchilar maslahatlashib, ish ko'radilar. O'qituvchi birinchi gapni o'qiydi va belgilangan boshlang'ich balni aytadi. Gap guruhda o'quvchilar bilan tahlil qilinadi, ma'qul kelsa, shu balni qo'lga kiritishni xohlasalar, guruhlar oldilaridagi 1, 2, 3, 4, 5 ballar yozilgan kartochkalardan birini ko'taradilar, ya'ni belgilangan boshlang'ich balga yana qo'shishlari mumkin. Agar tog'ri yozilgan gapni tanlagan bo'lsa, belgilangan ball ularga rag'bat sifatida qo'shiladi, aksincha, noto'g'ri yozilgan, ya'ni imloviy, ishoraviy, uslubiy xatolari bo'lgan gapni tanlasalar, bu ball ayirib tashlanadi. 9-sinf o'quvchilariga "Bog'langan qo'shma gaplar" mavzusini mustahkamlash maqsadida va o'quvchilarning savodxonligini sinash uchun imloviy xatolar asosida berilgan quyidagi gaplardan foydalanishingiz mumkin:





1. Egrilik insonni qabohatga yetaklaydi, to'g'rilik bo'lsa uni saodatga yetaklaydi.(1 ball)
2. Uzoqlardan keng vodiya quchoqida goh ko'm-ko'k o't bosib yotgan yaylovlar ko'rinadi, goh qop-qorong'i daralar ko'zga tashlanadi.(3 ball)
3. So'zning yumshag'i g'azabni so'ndiradi, so'zning qattig'i esa odamni o'ldiradi.(3 ball)
4. Qizaloq goh kulumsiraydi, goh chuqur o'yga toladi.(2 ball)
5. Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi.(1 ball)
6. Bolakay xabarni yetkazish uchun muyilish tomon yugurar va tinmay orqasiga qarar edi.(3 ball)Guruhda o'quvchilar birinchi va beshinchi gapni tanlasalar, boshlang'ich 1 ball va oshirilgan oxirgi ball o'quvchilarga rag'bat sifatida beriladi, bu gaplarda hech qanday imloviy xato so'z qo'llanmagan. Ikkinchi gapda "quchoqida"(quchog'ida) , uchinchi gapdagi "yumshag'i" (yumshog'i), to'rtinchi gapdagi "kulumsiraydi" (kulimsiraydi), oltinchi gapdagi "muyilish" (muyulish) so'zlarida imloviy xato mavjud bo'lib, ular uchun belgilangan boshlang'ich ballar (3 ball) jarima sifatida qo'llaniladi. Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari uchun mustahkamlash darslarida uslubiy xatolar ustida ishlash va savodxonligini aniqlashda ushbu gaplardan foydalanish mumkin:
 1. Kumush choyshap yopib dalalar , osmon ostida uxlab yotibdi.(3 ball)
 2. Chiroyli gilam to'shalgandey tog' etagi juda go'zal edi.Mahmudov N.M, Nurmonov A. 9-sinf. Ona tili. Darslik.-Toshkent.: O'qituvchi, 2019. -B.36.
 3. Xalq ertangi kuni yaxshiroq bo'lishini istasa, birlashmog'i, uyushmog'i va haqiqat uchun kurashmog'i kerak.(2 ball)
 4. Navoiy, Bobur, Mashrab singari jahonga mashhur shoirlar ruhi hamisha bizni insoniy kamolot sari boshlab turadi.(2 ball)
 5. Bizni ayollar hazrat Navoiyning kulliyotini tokchalarga terib qo'yadilar, g'avvos bo'lib bu ummondan fikr gavharini teradilar. (3 ball)Guruhda o'quvchilar uchinchi va to'rtinchi gapni tanlasalar, boshlang'ich 2 ball va oshirilgan oxirgi ball o'quvchilarga rag'bat sifatida beriladi, bu gaplarda hech qanday uslubiy xato so'z qo'llanmagan. Birinchi gapda "choyshap" (choyshab) , ikkinchi gapda "to'shalgandey" (to'shalganday), beshinchi gapda "bizni ayollar" (bizning ayollar) kabi so'z va qo'shimcha qo'llashda uslubiy xatolar mavjud bo'lib, ular uchun belgilangan boshlang'ich ballar (3 ball) jarima sifatida qo'llaniladi. O'quvchilarga "To'g'ri yoz! Xatosiz yoz!" demasdan, dars davomida qo'llagan metod va texnologiyalar nihoyasida ularda to'g'ri va xatosiz yozish ko'nikmasi shakllanishi kerak.





Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhitdinova X.S va boshqalar. O'zbek tili. Darslik. 10-sinf. O'qituvchi, 2017
2. Mahmudov N.M, Nurmonov A. Ona tili. Darslik. 9-sinf. O'qituvchi, 2019.
3. Mahmudov N.M, Nurmonov A. Ona tili. Darslik. 7-sinf. O'qituvchi, 2017.
4. Husanboyeva Q. Adabiy ta'limda mustaqil fikrlashga o'rgatish asoslari. – Toshkent.: O'zinkomsetr, 2003.
5. Umumiy va o'rta ta'limning o'zbek tili tili fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. DTS.– Toshkent.: Tasvir, 2017
6. Yo'ldoshev J, Mirzarahimova A. Ona tili va adabiyot darslaridan noan'anaviy darslar. - Toshkent.: 2006.
7. Qodirov V. Noan'anaviy darslar. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. -Andijon.: 1996.

